

FIGURATIV LEKSIKOGRAFIYADA LUG'AT MIKROSTRUKTURASI EKVIVALENTLIK MUNOSABATLARINING YORITILISHI

*Sh.J.Shomurodova*¹

Annotatsiya:

Maqolada ko'chimlar xususiyatlarining zamonaviy tarjima lug'atlari mikrotuzilmasida semantik jihatdan to'laonli yoritilishi qiyosiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ko'chim, ekvivalent birlik, makrostruktura, maqol, matal, metonimiya, metafora, kinoya.

doi: <https://doi.org/10.2024/bajbex71>

Tarjima lug'atlarini tuzishda asosan ikki til birliklari o'rtasida ekvivalentlik munosabatlarini o'rnatish masalasi katta e'tiborni talab etadi. Ko'chimga bag'ishlangan tarjima lug'atlarining diaxronik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular yildan yilga takomillashib, tilning paradigmatic imkoniyatlarini ko'rsatib berishning turli shakllarini ochishga xizmat qilmoqda. Ulardagi axborot sifati va to'laonligi globallashuv talabiga mos tarzda o'smoqda. Ma'lumki, har bir turg'un birliklarni aks ettiruvchi lug'at muntazam va batafsil turg'un birliklar yoki ularning tarkibiy qismlarining grammatik va leksik variantlarini keltiradi.

Kveseleovich tomonidan tuzilgan Ruscha-inglizcha frazeologik lug'at 19-20-asrlarda turli janrlarda keng qo'llanilgan 7000 ga yaqin ruscha turg'un birliklar hamda ularni ingliz tiliga tarjima qilishning mumkin bo'lgan variantlarini o'z ichiga oladi. Lug'at muallifi Kuninning frazeologik birliklar haqidagi ta'rifiga amal qiladi, unga ko'ra frazeologik birliklar "erkin so'z birikmalarining generativ struktur-semantik modeliga muvofiq shakllana olmaydigan murakkab semantikaga ega turg'un iboralardir" (Kunin 1996:5). Natijada, lug'atdan an'anaviy ravishda faqat frazeologik birliklar emas balki, metonimiya, maqol va matallar, hikmatli so'zlar, ba'zi bir stereotipik nutqiy iboralar, turg'un qiyoslar, semantik ko'chishli qo'shma atamalar ham o'rin olgan.

Lug'atning rus tili qismida kochma ma'noli birliklar tarkibiy qismlarining leksik, formal variantlari, shuningdek, ularning mavjud kontekstual-sintaktik shakllari mavjud. Lug'at muallifi frazeologik birliklarning asosiy tarkibiy qismlariga ham, rim va arab raqamlari bilan belgilangan so'z shakllarining boshqa variantlariga ham alohida e'tibor qaratgan.

Ushbu ish lug'at maqolasi eng mufassil bo'lgan lug'atlar qatoridan haqli tarzda o'rin olgan. Unda har bir belgi nazardan chetda qolmagan hamda frazeologik birlikning tarjima varianti ma'nosiga ko'ra turdosh bo'lgan barcha sinonimik qatorni o'zida mujassam etgan. Bu jarayonda nafaqat frazeologik birliklardan balki barcha ko'chim turlaridan unumli foydalanilgan.

Lug'atning yana bir yutug'i unda kontekst materiallaridan ham unumli foydalanilgan. Ushbu lug'atni boshqa ruscha-inglizcha frazeologik lug'atlardan ajratib turadigan xususiyat - bu sublemmalar deb ataluvchi kalit so'zning morfologik shakllari, ular ostida frazeologik

¹ *Sh.J.Shomurodova, SamDCHTI dotsenti*

birliklar alifbo tartibida keltirilgan. Kveselevichning fikricha, bunday sublemmalardan foydalanish foydalanuvchiga katta lug'at turkumlarida kerakli frazeologik birlikni tezda topishga yordam beradi[2;73]..

2008 yilda Rossiyaning Qozon shahrida nashr etilgan Ruscha-inglizcha-nemischa-turkcha-tatarcha frazeologik lug'at 7500 dan ortiq ko'chma ma'noli birliklar va ularning to'rt tildagi ekvivalentlarini o'z ichiga oladi. Bu birinchi katta hajmdagi ko'p tilli frazeologik lug'at hisoblanib, ruscha-inglizcha qismi yuqorida aytib o'tilgan lug'atdagi kabi tamoyillarga asoslanadi. Ruscha qismidagi misollar, kontekstual jihatdan yaxshi yo'itilgan. Semantik mazmun mohiyatini oshirish rus tili Milliy Korpusi (www.ruscorpora.ru) bazasi asosida amalga oshirilgan va 2500 dan ortiq birliklarni qamrab oladi.

Mazkur lug'atning enk katta yutuqlaridan biri bu ingliz tiliga tarjima qilingan qismida 9000 dan ortiq kontekstual misollardan foydalanish sanaladi va ko'chimlarning ingliz tilidagi ekvivalentlari soni yaqqol ustunlik qiladi. Rus tilidagi kontekstual misollar ingliz tiliga mahoratli tarzda tarjima qilingan. Ahamiyatli tarafi shundaki, ushbu jarayonda ruscha belgilarning (label) keng qamrovli ro'yxati lug'at strukturasini mazmunan boyitishga xizmat qilgan. Ushbu puxta o'ylangan belgilar tizimi ko'chimlarning funksional va stilistik yo'nalishi, emotsional belgilari tizimi, etimologiyasino yoritishga bevosita xizmat qilgan. Lug'atda keltirilgan qisqartmalar barcha tillarni qamrab olish xususiyati va soddaligi bilan e'tiborga molik.

Kuzmin tomonidan tuzilgan "Translator's Russian-English Dictionary" rus jurnalistlari tomonidan zamonaviy ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladigan ko'chimlarni yoritishga bag'ishlangan. Lug'atda rus tilining boshqa lug'atlariga kiritilmagan stilistik jihatdan so'zlashuv qatlamiga mansub bo'lgan neologizmlarni ham topish mumkin. Masalan, *болевая точка, на компьютер надейся, а сам не плошай* kabi iboralar rus tilidagi boshqa lug'atlarga kiritilmagan.

Lug'at strukturasining o'ziga xos jihati lemmadan keyin (odatda, rus tilidagi ko'chimning grammatik tuzilishidan qat'i nazar, ot bilan ifodalanadi, birlikning o'zi leksik va/yoki ixtiyoriy variantlar bilan birga keladi; shuningdek, fe'l komponentining to'liq va mukammal shakllariga ham e'tibor qaratiladi) kelgan grammatik ma'lumotning kehg qamrovli ekanligidadir. Ingliz qismiga kochim semantik xususiyatidan kelib chiqqan holda tavsifiy tarjima va ekvivalentlar kiritilgan. Lug'atni tuzishning asosiy vazifasi mos keladigan ingliz ekvivalentlarini va ularning lug'atda adekvat ifodasini topish bilan bo'lganligi sababli, Kuzmin bu borada yangi usullarni taklif qiladi. Uning fikricha, rus tili turg'un birliklarini bu shaklda berish ularni ekvivalentlarsiz tarjima qilishga yordam beradi. Shunday bo'lsada, ingliz tilidagi ekvivalentlar "ekvivalentlar bloklari" ko'rinishida taqdim etilgan. Buning sababi tarjimonlar odatda kochimlar mohiyatin tog'ri etkazish uchun bir paytning o'zida bir nechta ekvivalentni taqdim etadi [6;27]. Lug'atning yana bir yutug'i ko'pgina rus maqollarining mazmuniy jihatini tog'ri taqdim qilish maqsadida qofiyali tarjimanlar keltirilganligi bilan uzviy bog'liq. Jumladan, *доверяй, но проверяй* - "verification before ratification", *чем дальше в лес, тем больше дров* - "the deeper into the wood you go, the more timber seems to grow". Lug'atning boshqa afzalliklari orasida muallifning sharhlari va ingliz tiliga tarjima qilingan keng ko'lamli illyustrativ materiallar mavjudligi.

Lug'at maqolasida rus tilidagi turg'un birliklarining "kombinatorlik imkoniyatlari", ya'ni ularning boshqa so'zlar bilan birikish usullari yoki muayyan kontekstda qo'llanilishi ham ko'rsatilgan. Shuningdek, birliklarning stilistik xususiyatlarini yoritishda "ironiya" va "hazil" belgilariga ham e'tibor qaratiladi.

Lug'atning kamchiliklaridan biri sifatida belgilar (yorliqlash) tizimining qoniqarsizligini ko'rsatish mumkin. Qisqartmalar ro'yxati faqat o'nta belgini o'z ichiga oladi, ulardan oltitasi tillarning nomlari. Ayrim hollarda turli mazmundagi turg'un birliklar bitta

maqolaga kiritiladi, masalan, "не дать медного гроша за что-л." frazeologik birligi. "Что-л., кто-л. гроша медного (ломаного) не стоит" frazeologik birligi bilan birga berilgan. Ba'zi ko'chma ma'noli birliklarning boshlang'ich shakli noto'g'ri berilgan, masalan, "сосать лапу" frazeologik birligi "придется (должны будем) лапу сосать" shaklida berilgan.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, "Translator's Russian-English Dictionary" lug'ati, amaliy jihatdan foydalanuvchilar uchun ayniqsa, ommaviy axborot vositalari sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. Faqatgina ushbu lug'atda turli gazeta va jurnallardan olingan ko'plab ruscha tasviriy misollar mavjud bo'lib, ularni boshqa ruscha-inglizcha frazeologik lug'atlarida topib bo'lmaydi. Rus tilidagi barcha misollar ingliz tiliga tarjima qilingan.

Shadrin tomonidan tuzilgan "O'xshatishlarnig ruscha-inglizcha lug'ati" figurativ leksikografiyaning noyob namunasi sifatida tan olinadi. Shadrin o'xshatishlarni frazeologik birliklarning alohida turi degan nazariy fikrni taklif etadi va ushbu nuqtai nazarni isbotlashga harakat qiladi. "O'xshatishlarnig ruscha-inglizcha lug'ati"da rus tilidagi 500 dan ortiq turg'un o'xshatishlar (muallif ularni alohida turdagi frazeologik birliklar deb hisoblaydi) va ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari mavjud.

Shadrin lug'atning kirish qismida ta'kidlaganidek, lug'at uchta asosiy qismdan iborat. Birinchi (ruscha) qismning lug'at maqolasida asosiy o'xshtish raqam bilan boshlanadi, keyin esa uning barcha leksik va variativ shakllari beriladi. Bundan tashqari, bu erda birlikning ta'rifi, grammatik xususiyati va belgilarning turli xil turlarini topishingiz mumkin: funktsional-stilistik, temporal, emotsional, ekspressiv va hududiy (bu birlik Amerika variantiga tegishli yoki yo'qligini anglatadi). Lug'atning usbu qismida ekspressivlikni ko'rsatadigan belgi (yorliq)dan ("ekspress.") foydalanish noaniq tarzda shakllantirilgan, masalan, "гореть как на огне" fe'li taqqoslashda "ekspress" yorlig'i mavjud bo'lsa, "жечь как огнем" birligi ham ekspressivlik bilan tavsiflansada, lug'atda bunday belgi qo'yilmagan. Bundan tashqari, lug'atning ruscha qismida turg'un iboraning ma'nosi inglizcha ekvivalentlar topilmagan holatda rus tilida talqin qilinadi.

"O'xshatishlarnig ruscha-inglizcha lug'ati"ning ikkinchi inglizcha qismida mos ravishda turli xil ingliz tili turg'un birliklari analoglar sifatida keltirilgan hamda ma'noning talqini yoki ruscha variantlar ifodasining tavsifiy tarjimasini keltirilgan. Ko'p o'rinlarda bir nechta ingliz tilidagi analoglarining kiritilishi lug'atning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi[6;31].

Mazkur lug'at uchinchi qismining o'ziga xos xususiyati ko'p sonli tasviriy misollar va ularning ingliz tiliga tarjimasini bo'lib, ularning aksariyati avval nashr etilgan eng yaxshi tarjimalardan olingan. Rus tilidagi iqtiboslar ham asosiy qo'llanishda, ham kontekstli misollar bilan keltirilgan. Kontekstli izohlar ellipsis, frazeologik birliklar, birlik tarkibiy qismining almashinuvi kabi elementlar bilan beriladi. Tasviriy materialning bunday taqdimoti rus tilidagi barqaror taqqoslashlarning nutq imkoniyatlarini va ularni ingliz tiliga to'g'ri tarjima qilish usullarini ko'rsatishning yorqin shaklidir.

So'nggi yillarda nashr etilgan lug'atlarda bosh ibora ekvivalentlarining hatto variantlari ham uchraydi va ekvivalentlar mazmun jihatidan yanada batafsil ko'rsatilgan. Bu fikrni bosh ibora va undan foydalanish haqida turli xil ma'lumotlarni taqdim etuvchi belgi (yorliq)lar sonining ko'payishi hamda ularni ishlatishning tizimli yo'lga qo'yilganligi bilan ham isbotlash mumkin. Bosh iboralarning grammatik va leksik birikmalarini tavsiflashga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda va illyustrativ material ishonchli tarzda badiiy matnlardan ko'p sonli misollar hamda ayrim hollarda tasvirlar orqali namoyon etilmoqda. Stilistik jihatdan ham ma'lumotlarni taqdim etish tizimi rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Большой фразеологический словарь русского языка: Значение. Употребление. Культурологический комментарий / отв. ред. В.Н. Телия. М.: АСТ-Пресс книга, 2009. 784 с.
- [2]. Грекова М.В. Фигуративная лексикография и её место в современной русистике // Вопросы лексикографии. 2016. № 2 (10). С. 18–40.
- [3]. Иванова Н.Н., Иванова О.Е. Словарь языка поэзии (образный арсенал русской лирики конца XVIII – начала XX в.): более 4500 образных слов и выражений. М.: АСТ: Астрель: Русские словари: Транзиткнига, 2004. 666 с.
- [4]. Павлович Н.В. Словарь поэтических образов: в 2 т. М.: Эдиториал УРСС, 1999. Т. 1. 848 с.
- [5]. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент. 2008, -300б.
- [6]. Трипольская Т.А. Семантическая структура экспрессивного слова и ее лексикографическое описание (на материале эмоционально-оценочных существительных со значением лица): дис.... канд. филол. наук. Новосибирск, 1984. 226 с.
- [7]. Black M. *Models and metaphors: Studies in language philosophy*. New York: Cornell univ. Press, 1962-267p.
- [8]. Sommer E., Weiss D. *Metaphors dictionary*. Visible Ink Press. Detroit. 2001. -612 p.
- [9]. Spears R.A. *Dictionary of American idioms and phrasal verbs*. McGraw-Hill's, 2005. -980p.